

## KO'PMA'NOLILIK HODISASINING OBRAZLILIKNI YUZAGA KELTIRISHDAGI ROLI

**Davidov Yunus Jummayevich**

Termiz davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi.

Tel: +99891-908-18-28 E-mail: [davidov\\_yunus@tersu.uz](mailto:davidov_yunus@tersu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19279513>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko'p ma'nolilik hodisasi va ko'chma ma'no o'rtasidagi farq, ko'pma'nolilikning ma'no kengayishi va torayishidan farqi keltirilgan. Badiiy asarlarda ko'pma'nolilikning obrazlilikni ta'minlovchi vosita ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ko'p ma'nolilik, ko'chma ma'no, bosh ma'no, hosila ma'no, ma'no kengayishi, ma'no torayishi, obrazlilik.

Har bir so'z badiiy matnda obraz yaratilishda ishtirok etishi mumkin, ayniqsa, ko'p ma'noli, ko'chma ma'noli so'zlarda bu imkoniyat yuqoridir. Bu haqda V.V.Vinogradov "Stilistika. Teoriya poeticheskoy rechi. Poetika" asarida obraz uchun material bo'la olmaydigan so'z va lisoniy shakl yo'qligini, faqat ularni badiiy obrazlilik maqsadida qo'llash uslubiy va estetik jihatdan asoslanishi kerakligini qayd etadi. Badiiy asardagi har bir so'z badiiy maqsadga yo'naltirilgani sababli ham obrazlilikni yuzaga keltiradi. "Badiiy nutqda hatto o'zining to'g'ri ma'nosi bilan qo'llangan so'z lug'atdagi ayni shu so'z bilan aynan teng emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatda bo'ladi. Natijada bu so'z ham emotsional-ekspressiv ta'kid bilan idrok etiladi"<sup>1</sup>. Ko'p ma'noli so'zlarda bosh va hosila (ko'chma) ma'no farqlanadi.

Boshqa bir leksik ma'noning yuzaga kelishi uchun asos bo'lgan ma'no bosh ma'no deyiladi. Bosh ma'noning taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan leksik ma'no hosila ma'no deyiladi<sup>2</sup>.

So'z ma'nosi ko'chganda ko'chma ma'no bosh ma'nodan uncha uzoqlashmasligi yoki, aksincha, undan ancha uzoqlashib ketishi mumkin. Masalan, bo'rilar tog'ga qarab qochdi, Asrorqul o'shandan beri qishloqma-qishloq qochib yurar ekan. (A.Qahhor, Asror bobo) kabi o'rinlarda bir-biriga juda yaqin turgan ma'nolarni ifodalasa ham yerning nomi qochibdi, suvi qochgan non kabi o'rinda bosh ma'nodan biroz uzoqlashish kuzatiladi. Bosh ma'noning tarkibi hosila ma'noga nisbatan soddaroq, umumiyroq bo'ladi. Masalan, bosmoq leksemasining bosh ma'nosi quyidagicha: "ustiga oyoq qo'ymoq. Bemahal yurgan go'ng bosar". Bosmoq leksemasining quyidagi hosila ma'nosi bosh ma'noga nisbatan ancha murakkab strukturaga ega: "Qoplamoq, o'rab olmoq, qamramoq; egallamoq; elitmoq. Ter bosmoq. Tuman bosmoq".

Bosh ma'noning birikma hosil qilish imkoniyati hosila ma'noga nisbatan keng bo'ladi.

Masalan, ko'z leksemasi bosh ma'noda ko'plab bog'lanishlar hosil qiladi oladi: ko'k ko'z, qora ko'z, ko'z qorachig'i, ko'z gavhari, ko'zi og'rimoq. Ko'z leksemasi bosh ma'noda tirik organizmlarning nomi bo'lgan ot leksemalar bilan juda ko'p miqdorda bog'lanishlar hosil qila oladi: qo'yning ko'zi, bolaning ko'zi<sup>3</sup>. Qo'y-I, qo'y-II, echki-I, echki-II, kuchuk-I, kuchuk-II giperonim va giponimlari bilan qo'y-II, echki-II, kuchuk-II giponimlari o'zaro jins-tur munosabatlarini ifodalash orqali bog'lanadi, so'zning turli ma'nolari orasida semantik aloqaning mavjudligini nazarda tutib bunday, ya'ni giponimik va giperonimik ma'no orqali bog'langan so'zlarni ko'p ma'noli so'zlarning bir turi sifatida baholash mumkin.

<sup>1</sup> [http://myuldashv.blogspot.com/2015/03/blog-post\\_19.html](http://myuldashv.blogspot.com/2015/03/blog-post_19.html).

<sup>2</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent: 2006, 59-bet

<sup>3</sup> Хақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 44-бет

Ko'chma ma'noni hosil qilish usullariga ko'ra bunday so'zlarning ma'nolari orasidagi bog'lanishni sinekdoxaga oid, ya'ni aloqa asosida hosil bo'lgan ma'nolarga kiritish mumkin.<sup>4</sup>

Bu o'rinda shuni qayd etish joizki, ko'pma'nolilik hodisasi va ko'chma ma'no hosil bo'lishi aynan bir narsa emas. Ya'ni so'z ko'chma ma'noli bo'lishi mumkin, lekin ya'ngi ma'no hosil bo'lmagan bo'lsa, ko'pma'noli so'z hisoblanmaydi. Chunki ko'pma'nolik yuzaga kelishi uchun yangi leksik ma'no yuzaga kelishi shart. Masalan, *kumush uzuk* birikmasidagi "kumush" so'zi ko'chma ma'noda, lekin *kumush qish* birikmasidagi "kumush" so'zi bilan bir leksik ma'noda. Darvozani ochdi va ro'zasini ochdi birikmalaridagi "ochmoq" so'zi kirishga ruxsat bermoq umumiy ma'nosini anglatmada, ikkinchi birikmadagi "ochmoq" emoq yoki ichmoq ma'nosini anglatyapti va natijada ko'p ma'nolilik yuzaga kelyapti. Yoki *bekinmachoq o'ynamoq(1)*, *shaxmat o'ynamoq(2)*, *davrada o'ynamoq (raqs tushmoq)(3)*, *sahnada rol o'ynamoq(4)*. Ushbu birikmalardagi o'ynamoq(1)– ko'ngil ochish maqsadida biror mashg'ulot bilan shug'ullanmoq, o'ynamoq(2)– tana, oyoq-qo'lni musiqaga mos harakatlantirmoq, o'ynamoq(4) kino, teatrlarda rol ijro etmoq ma'nolarini ifodalaydi. Demak, o'ynamoq fe'li bosh ma'noga bog'liq holda bir qancha leksik ma'no ifodalab, ko'pma'nolilikni yuzaga keltirgan. Shuni alohida qayd etish joizki, ko'pma'nolilik hodisasi va lig'aviy vositalarning ma'no jihatdan ko'pqirraligi bir narsa emas. Bu haqda A. V.Fyodorov ma'no jihatdan ko'pqirralikni badiiy nutqning o'ziga xos xususiyati ekanligini va badiiy nutqni nutqning boshqa turlaridan keskin farqlab turishini<sup>5</sup> qayd etadi. B. Umurqulov lug'aviy vositalarning ma'no jihatdan ko'pqirraligi badiiy matn, xususan, nasriy matnning muhim jihati ekanligini ta'kidlab, uning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "bu holatda so'z faqat bir ma'noni emas, balki bir necha ma'noni ifodalashi orqali kitobxonga ta'sir etishi mumkin"<sup>6</sup>. Ko'pma'noli so'zlarning ma'nolari qanchalik ko'p bo'lmasin matn (gap) tarkibida faqat bitta ma'noda qo'llaniladi. Lug'aviy vositalarning ma'no jihatdan ko'pqirraligida esa gap tarkibidagi ayrim so'zlar birdan ortiq ma'noda qo'llaniladi va matnning funksional imkoniyatini kengaytiradi. Bunday birliklar ko'proq askiyalar, latifalar, umuman xalq og'zaki ijodining shu kabi turlarida ko'proq qo'llaniladi.

Ko'p ma'nolilik hamda ma'no kengayishi va torayishi hodisalari bir-biridan farq qiladi.

Bu ikki hodisani M.Mirtojiyev quyidagicha izohlaydi: Ko'p ma'nolilik yuzaga kelishi birdan ortiq leksik ma'noning hosil bo'lishidir. Ma'no kengayishi faqat bir ma'noning ichki o'zgarishidir. Ya'ni ular boshqa-boshqa til hodisalaridir. Ma'no kengayishida u anglatgan tushuncha doirasi kengayadi, unda yana bir yangi leksik ma'no hosil bo'lmaydi. Kengayish sodir bo'lgan leksik ma'no ilgari qanday ifoda bergan bo'lsa, keyin ham o'sha ifodani beradi, faqat o'sha leksik ma'no anglatgan referent miqdori yoki hajmi ortadi<sup>7</sup>. M.Hakimova Semasiologiya kitobida leksik ma'no o'zgarishining natijasi ikki xil bo'lishini, ya'ni 1) Leksemaning semantik strukturasiidagi ma'nolarning soni ko'payishi polisemiyaga, keyinchalik omanimiyaga olib kelishini; 2) Leksema ma'nosining hajmi o'zgarishini, bunda yangi ma'no hosil bo'lmasdan ma'noning hajmi kengayishi yoki torayishini qayd etadi<sup>8</sup>. Yuqoridagi mulohafalardan ma'lum bo'ladiki, ko'pma'nolilik va ma'no kengayishi, torayishi hodisalari bir-biridan farq qiladi.

<sup>4</sup> Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. –Тошкент: "Ўқитувчи", 1996. 46-бет

<sup>5</sup> Фёдоров А.В. Некоторые лексико-семантические факторы смысловой многоплановости художественной речи. (Лексикология и лексикография) М.,–С. 71-72.

<sup>6</sup> Умурқулов Б. Бадий наср жозибаси.–Т. "Muharrir nashriyoti", 2021. 49-бет

<sup>7</sup> Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: "Мумтоз сўз", 2010.168-бет

<sup>8</sup> Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008. 67-бет

Demak, ko'pma'nolilikda bir ma'nodan unga bog'liq bo'lgan boshqa bir ma'no o'sib chiqadi. Masalan, gul o'sib chiqdi, ma'no o'sib chirdi. Ma'no kengayishi va torayishida yangi ma'no hosil bo'lmasdan anglatayotgan ma'no kengayadi(ko'payadi) yoki torayadi(kamayadi).

Masalan, qishloq so'zining "qishda yashaydigan joy" ma'nosini anglatgan bo'lsa, hozirda aholi muqim yashaydigan, shahar bo'lmagan joy tushuniladi.

B. Umurqulov ta'kidlaganidek, "Obrazli ifodalar o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday ifodalar ijodkorning katta mehnati va o'tkir tafakkurining samarasi sifatida vujudga keladi.

Ba'zan bir fikrni bayon etishda qator-qator obrazli ifodalarning qo'llanilgani kuzatiladiki, bu holatni ko'proq poetik nutq uchun xos deb baholash mumkin".<sup>9</sup> Darhaqiqat, badiiy asarlarda ko'pma'nolili so'zlar ham obrazlilikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi. N. Axmedova maqolasida "...predmetlar doimo serqirra bo'lishini, shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bir obraz tafakkurda bir necha predmetga nisbatan qo'llanishi mumkinligini, odamning tishi, arraning tishi, taroqning tishi kabi birikuvlarda odamning tishi tafakkurdagi asosiy obraz bo'lib, tish predmetiga xos yanchish, maydalash, bo'laklash, bir xil ketma-ketlikda joylashish kabi xususiyatlar shu obrazning boshqa predmetlar (arra, taroq)ga nisbatan qo'llanishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Obrazlarning bunday o'ziga xosligi orqali hosil qilingan tafakkur shakli obrazli tafakkur atamasi bilan nomlanishini qayd etadi.<sup>10</sup>" Demak, ko'pma'noli so'zlarning hosila ma'nolari obrazlilikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Sh. Rahmatullayev so'zning yuzaga kelgan hosila ma'nosi ma'lum vaqt o'tgach obrazlilikni yo'qotishi mumkinligini qayd etib, *qozonning qulog'i, choynakning burni* birikmalaridagi *quloq va burun* so'zlarining hosila ma'nosi o'z ifodalaridagi obrazlilikni yo'qotganligini ta'kidlaydi<sup>11</sup>.

M.Mirtojiyev: "So'z hosila ma'nosi metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, tobelilik hodisalarining barchasiga ko'ra yuzaga keladi. Bunda so'zning ma'no taraqqiyotiga ko'ra hosil bo'lgan barcha leksik ma'nolari nazarda tutiladi. Ma'lum so'zda hosila ma'no yuzaga keltirilgan ekan, ko'p hollarda ifodaning obrazlilikini ta'minlash maqsad qilib olinadi. Lekin hamma vaqt ham ifodaning obrazlilikini ta'minlash maqsadi bilan hosila ma'no yuzaga kelavermaydi"<sup>12</sup>, – deya ta'kidlab o'tadi. *Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur.* (Muqimiy) *Dasturxonga boqqan do'st emas.* (Maqol) *Bir boshga bir o'lim.* (Maqol) Olim ushbu gaplardagi *gul* so'zi metaforaga ko'ra; *dasturxon* so'zi metonimiyaga ko'ra; *bosh* so'zi sinekdoxaga ko'ra hosila ma'no yuzaga kelganligi, lekin pragmatik semaga ega emasligi, obrazli ifodalamasligi, shuningdek, vazifadoshlik va tobelilikka ko'ra hosila ma'no yuzaga kelganda ham obrazlilik kuzatilmashligini qayd etadi. Bizningcha, bu kabi hosila ma'nolar nutqda ko'p qo'llanilganligi sababli so'zlovchi yoki tinglovchi tafakkurida va nutqida ko'nikma hosil bo'lib, uni oddiy qabul qiladi. Lekin baribir ularning "tomir"ida obrazlilik saqlanib qoladi. Ko'pma'nolilikni yuzaga kelishida asosiy vosita bo'lgan ko'chimlarning badiiy asarlarda obrazlilikni ta'minlashiga Oybekning quyidagi she'rini misol qilishimiz mumkin.

*Nafis chayqaladi bir tup na'matak, // Yuksakda shamolning belanchagida.*

*Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul, // Viroq-la o'shshaygan qoya labida,*

*Nafis chayqaladi bir tup na'matak...*

*Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil, Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.*

*So'nmaydi yuzida yorqin tabassum, Yanoqlarni tutib oltin bo'sa –chun,*

<sup>9</sup> Umurqulov B. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. 56-бет

<sup>10</sup> Axmedova N. "Образли тафаккурнинг лингвистик талқини". <http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB. 119-бет

<sup>11</sup> Турсунов У. Мухторов Ж. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 129-бет

<sup>12</sup> Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. 142-бет.

*Quyoshga tutadi bir savat oq gul!* Ushbu she'ra shoir ko'chma ma'noli so'zlardan obrazlilik va ta'sirchanlikni ta'minlashda foydalangan. Jumladan, na'matakning shamolda chayqallishi *belanchakda tebranishga*, yoki shu chayqalishni *mayin raqsga o'xshatish* badiiy obraz yaratilishiga xizmat qilgan. Bu kabi ifodalar obrazlilikni, ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Ko'chimlar badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan yozuvchining mahoratini namoyon etadigan asosiy vositadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ахмедова Н. “Образли тафаккурнинг лингвистик талқини”. <http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB. 119-бет
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. –Тошкент: “Мумтоз сўз”, 2010.
3. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. .–Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996. 46-бет
4. Умурқулов Б. Бадий наср жозибаси. – Т. “Muharrir nashriyoti”, 2021. 49-бет
5. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. 56-бет
6. Турсунов У. Мухторов Ж. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. 129-бет
7. Ҳақимова М. Семасиология. – Тошкент. 2008.
8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: 2006, 59-bet
9. Davidov Y. The uniqueness of speech styles in terms of the use of speech tools //Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 46-49.
10. Davidov Y. J. et al. Badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 947-952.
11. Davidov Y. O'ZBEK TILINING KIRILL VA LOTIN YOZUVI IMLO QOIDALARINING QIYOSI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2. – №. 13. – С. 836-839.
12. Davidov Y. J. The Phenomenon of Polysemy and Different Aspects of Conversion //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – Т. 12. – С. 245-247.
13. Yunus Jummaevich Davidov KO'P MA'NOLILIK HODISASINING YUZAGA KELISH YO'LLARI // SAI. 2022. №B2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ko-p-ma-nolilik-hodisasining-yuzaga-kelish-yo-llari> (дата обращения: 24.02.2023).